

MUTAFAKKIR, OLIM VA HUKMDOR MIRZO ULUG‘BEKNING QALBI  
GAVHAR ONASI

Axmatova Nozliya

*O‘zMU Tarix fakulteti 1-kurs magistranti*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada buyuk bobokalonlarimizdan biri Mirzo Ulug‘bekning onasi – Gavharshodbegim haqida ma‘lumot beriladi. O‘z davrining manbalariga tayangan holda ushbu malika xususida faktlar maqolada jamlangan. Shuningdek, maqolada XIV-XV asrlarda Movarounnahr va Xuroson tarixi haqidagi qisqacha ma‘lumotlar ham aks ettirilgan.*

**Kalit so‘zlar:** *Gavharshodbegim, Mirzo Ulug‘bek, Shohruh Mirzo, Sharafiddin Ali Yazdiy, Abdurazzoq Samarqandiy, Movarounnahr, Xuroson, “Zafarnoma”, "Matla‘i savdayin va majmai - bahrayin".*

Tarix zarvaraqlari minglab olim-u fozillarga to‘la. Zaminimizda kamol topgan allomalarning ilmiy merosi bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Xususan, XIV-XV asrlar Movarounnahr poytaxti ilm-ma‘rifat markaziga aylandi. Ulug‘bek – Movarounnahr podshohi tarix sahifalaridan buyuk olim, o‘z davrining ma‘lum va mashhur siymosi, atoqli matematik va astronomi sifatida o‘rin olgan. Mirzo Ulug‘bekning fidoyiligi haqida so‘z ketganda, bevosita uni ilm ahliga hadya etgan volidai muhtaramasi Gavharshodbegimning yorqin siymosi ko‘z oldimizga keladi. Gavharshodbegim haqida ma‘lumot va materiallar yetarli bo‘lishiga qaramasdan, u haqida biror bir risola yoki monografiya mavjud emas. Mazkur ilmiy tadqiqot ishidan ko‘zlangan maqsad Mirzo Ulug‘bekni dunyoga keltirgan ayol tarixiga murojaat etish va, aynan, Gavharshodbegim orqali mamlakatimiz tarixida ayollarning ahamiyatiga nigoh tashlashdan iborat.

Temuriylar sulolasida yorqin yulduz, shohlar avlodidan chiqqan buyuk olim, bunyodkor inson Mirzo Ulug‘bekning onasi Gavharshodbegim bo‘lib, o‘zining donoligi, tadbirkorligi, bunyodkorligi bilan tarixga o‘z nomini muhrlagan malikalardan biri. Tarixchi Turg‘un Fayziyev o‘zining “Temuriy malikalar” asarida Gavharshodbegim haqida ma‘lumotlarga to‘xtalib o‘tadi: Gavhar Shod begim Amir Temurning to‘rtinchi o‘g‘li Shohruh Mirzoning suyuqli katta xotini edi. U Chig‘atoy zodagonlaridan G‘iyosiddin Tarxonning qizi edi. Rivoyat qilishlaricha, G‘iyosiddin Tarxonning bobokaloni – Qushlik bir vaqtlar Chingizxon mulozimati bo‘lib, bir jang asnosida uni o‘limdan saqlab qolgan ekan. Shundan buyon Chig‘atoy ulusida bu avlod yuksak e‘tibor va hurmatga sazovar bo‘lgan. Gavhar Shod begim 1379 yilda tug‘ilib, 1393 yilda Shohruh Mirzo nikohiga kirgan. Undan uch o‘g‘ilu ikki qiz ko‘rgan. To‘ng‘ich o‘g‘li – Ulug‘bek Mirzo ko‘ragon (Muhammad Tarag‘ay, 1394-1449), o‘rtancha o‘g‘li –

Boysung'ur Mirzo (1397-1433) va kichik o'g'li – Muhammad Jo'ki Mirzo (1401 -1445) lardir[1].

Muarrir Sharafiddin Ali Yazdiy Shohruh Mirzo va Gavharshodbegimning to'ylari temuriyzoda aka-uka Muhammad Sulton va Pir Muhammad Mirzo birga o'tganligini quyidagicha ta'riflaydi: "Har biriga bir huri najot qizni sha'riy mutahhara yo'sini bila berdi va Bog'i Bihishtda to'y qildi". Bu voqea xijriy 790 (milodiy 1388) yilda sodir bo'ladi. Nikoh marosimidan so'ng ular Hirotga qaytib keladilar. Bu nikohdan uch o'g'il (Ulug'bek Mirzo, Boysunqur Mirzo, Jo'ki Mirzo) va ikki qiz farzand tug'iladi. Tarixiy manbalarning guvohlik berishicha, Gavhar Shod begim yuksak did-farosatli, oqila, tadbirkor, suxandon, bir so'zli – qat'iyatli, husn bobida ham benazir ayol bo'lgan[2]. Tabiatan dindor Shohruh Mirzo ko'p vaqtini toat-ibodat va kitob mutolaasiga sarflardi. Malikaning shaxsiy fazilatlari haqida atroflicha ma'lumot beruvchi manbalardan biri, Abdurazzoq Samarqandiyning "Matla'i savdayin va majmai - bahrayin" asaridir. Muarrir shaxsan ko'rganligi va bilganligini asarning 41 o'rnida tilga oladi. Muallif uni tasvirlaganda turli ta'rif-tavsif, badiiy tashbihlarni keltiradi. Bir o'rinda "og'oyi" desa, ikkinchi o'rinda "Mahdi-ul yo" (podshohning bosh ayoli, bosh malika), deb ataydi. Ayrim tadbirlar tasvirida malikani hatto Sabo' mamlakatning malikasi, payg'ambar Sulaymonning xotini Bilqis nomi bilan ham ataydi. Bu ta'riflar uning tashqi qiyofasiga uyg'un bo'lib, uning shohona bazmlardagi ishtiroki, shu bazmga mos liboslar bilan ko'z oldimizga keladi.

Saltanat, devon ishlarini o'ktam va tadbirkor xotini Gavhar Shod begim boshqarardi. Bu ziyrak ayol qaynotasi Amir Temur vafotidan so'ng, sekin-asta saltanat ishlarini o'z qo'liga oldi. Shohruh Mirzo nihoyatda halim tabiat, madaniyatli kishi bo'lib, farzandlari va nabiralariga qanchalik e'tiborli bo'lgan bo'lsa, ularni dunyoga keltirgan malikalarning hurmatini hamisha o'z o'rniga qo'ygan. Ayniqsa, Gavharshodbegim o'z aql-idroki, tadbirkorligi, husnu latofati bilan Shohruh Mirzoning ishonchini qozongan. Ayrim paytlarda u devon va saltanatni boshqarishda Gavharshodbegimning maslahatiga tayangan. Zotan, Shohruh Mirzoning o'zi ham xotini Gavhar Shod begimning donoligiga tan berar, saltanatni boshqarishda oqilona va tadbirli maslahatlariga ehtiyoj sezib turardi. Hatto, devon ishlarini boshqarish, lavozimga tayinlash, in'om berish, aybdorlarni jazolash huquqiga ham ega bo'lgan[3].

Tarixchi olim Amriddin Berdimurodov o'zining "Samarqand tarixidan tomchilar" nomli maqolalar to'plamida[4] Gavharshodbegimning hatto shaxsiy muhrga ega bo'lganligini aytib o'tadiki, bu malikaning ayrim davlat ishlarida o'zi shaxsiy qaror qabul qilib, uning ijrosini kuzatganini, tasdiqlaganini ko'rsatadi. U to'q yashil mohtobdan, to'q yashil rangda, (nefritdan) bodomsimon shaklda yasalgan bo'lib, sirtiga suls yozuvida arabcha xat bilan "Gavharshodbegim G'iyosiddin Tarxonning qizi", deb yozilgan. Malikaning bu muhri bugungi kungacha yetib kelgan u juda katta siyosiy kuchga ega bo'lib, tosh o'ymakorligining go'zal namunasi. Bu noyob yodgorlik

sifatida hozirda Sankt-Peterburgdagi Ermitaj muzeyida CA-13650 raqami ostida saqlanadi. Muhr taxminan 1457 yillarda ishlangan.

Hayotining katta qismi shohona bazmlar, to‘yu shodiyonalar, bunyodkorlik ishlariga boy bo‘lgan Gavharshodbegim umrining oxiri fojialar va qayg‘ular bilan o‘tdi. Bir so‘zli, shijoatkor malika bir necha marta farzand dog‘ini ko‘rdi. Katta o‘g‘li Ulug‘bekning o‘ldirilganida na uning jasadini va na qabrini ko‘rolmadi. San‘at oshuftasi Boysun Mirzo 38 yoshida vafot etdi. Kenja o‘g‘li Muhammad Jo‘kiy 44 yoshida vafot etib, malikaning qaddini egib ketdi. Keksayib, g‘am kulfati girdobida qolgan malika Mirzo Ulug‘bekning vafotidan so‘ng sakkiz yil umr ko‘radi. Turg‘un Fayziyev o‘z asarida keltirishicha, “Shahzodalarning noittifoqligidan foydalangan Samarqand hukmdori Sulton Abusaid Mirzo (1424—1469) Xurosonni bosib oladi. Sulton Abusayid Mirzo Samarqand taxtini o‘zining katta o‘g‘li Sulton Ahmad Mirzoga (1451 — 1493) berib, Hirotnn o‘zining poytaxti deb e‘lon qiladi. Bu vaqtda malnka Gavhar Shod begim 80 yoshga yaqinlashib, ancha qarib qolgan edi. Biroq qarib qolgan malika Xuroson taxtidan hali ham voz kechmagan edi. Binobarin, chevarasi Sulton Ibrohim Mirzoni (1440—1460) hukmdor Sulton Abusayid Mirzoga qarshi isyon ko‘tarishga undaydi. Malikaning bu harakatidan xabar topgan Sulton Abusaid Mirzo malikani chopib tashlashga farmon beradi. Farmonga muvofiq 1457 yilda Gavharshod begim chopib o‘ldiriladi, keyin esa o‘zi qurdirgan madrasa yonidagi Boysung‘ur dahmasiga dafn etiladi”. Manbalarda berilgan ma‘lumotlarga ko‘ra, Gavharshodbegimning to‘ng‘ich farzandi Mirzo Ulug‘bekning tarbiyasi go‘dakligidayoq Samarqandga keltirilib Bibixonimga topshirilgan. Shunday bo‘lsa-da, Gavharshodbegim o‘g‘lini ko‘rish uchun Samarqandga tez-tez kelib turgan. Mirzo Ulug‘bek, bir o‘rinda onasi haqida go‘zal tashbehni aytib o‘tgan ekan. "Onamning ismi-yu ko‘zlarigina gavhar emas, balki aqli ham gavhar edi". Mirzo Ulug‘bekdagi bunyodkorlik, ma‘rifatparvarlik tuyg‘usi ona qonidan o‘tganligini unutmazlik lozim, deb o‘ylaymiz. Buyuk shaxs, ma‘rifat arbobi, olim – Mirzo Ulug‘bekni dunyoga keltirgan Gavharshodbegim nomi yurtimizda e‘zozlanib kelinmoqda. Uning ezgu ishlari haqida B.Ahmedov, A.O‘rinboyev, A.Ahmedov, U.Uvatov, A.Berdimurodovlar ilmiy tadqiqot ishlarini olib borgan. Qobul shahrida 2003 yilda ochilgan xotin-qizlar universiteti faoliyat olib bormoqda. Universitet malika Gavharshodbegimning hurmati va ehtiromi ramzi sifatida uning nomi bilan yuritilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, ushbu ilmiy ishda Gavharshodbegim siymosiga bir nazar tashlash orqali, shonli tariximizda o‘z o‘rni va ahamiyatiga ega malikalar hamda ularning tarixiy sahnalarida muhim roli xususida to‘xtalib o‘tish maqsadga muvofiq ekanligi o‘z aksini topdi desak, mubolag‘a bo‘lmaydi.

1. Файзиев Т. Темурий маликалар. Т., А.Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 1994. – 26 б
2. Мухаммад Хайдар Мирзо. Тарихи Рашидий. – Т.: Шарқ, 2010. –720 б.
3. <https://zarnews.uz/uz/post/mirzo-ulugbek-onamning-ismi-yu-kozlarigina-gavhar-emas-balki-aqli-ham-gavhar-edi>
4. <https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/taqdimot/amriddin-berdimurodov-samarqand-tarixidan-tomchilar.html>